

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN SIFAT MENEJMENTI TIZIMI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Sifat menejmenti tizimi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Sifat menejmenti tizimi

1. Sifatni boshqarish va sifat to'g'risida umumiy ma'lumotlar va tushunchalar;
2. Sifat menejmenti tizimi to'g'risidagi ta'limot tarixi;
3. Sifatni boshqarishning uslubiy asoslari;
4. ISO 9000 seriyali standartlari talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimlari;
5. Sifat menejmenti tizimiga talablar;
6. Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish;
7. Sifat menejmenti tizimida rahbariyatning javobgarligi;
8. Sifat menejmenti tizimida resurslarni boshqarish;
9. Mahsulotni ishlab chiqarish;
10. O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash;
11. Korxona va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
12. Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testl ar soni
1	Sifatni boshqarish va sifat to'g'risida umumiy ma'lumotlar va tushunchalar;	Sifatni boshqarish va sifat to'g'risida umumiy nazariy, ma'lumotlar va tushunchalar haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladi.	5 %	2 ta
2	Sifat menejmenti tizimi to'g'risidagi ta'limot tarixi;	Sifat menejmenti tizimi to'g'risidagi ta'limot tarixi haqida ma'lumotlar va ularni tahliliy mulohazalari. Sifat menejment tizimi qaysi davlatda paydo bo'lgan va hozirgi rivojlangan davlatlardagi holati haqida bilim va ko'nikmalarni ega bo'ladi.	2,5 %	1 ta
3	Sifatni boshqarishning uslubiy asoslari	Sifatni boshqarishning uslubiy asoslari va tashkiliy asoslari haqida bilim va ko'nikmalarni ega bo'ladi.	5 %	2 ta
4	ISO 9000 seriyali standartlari talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimlari	Sifat menejmenti tizimida muhim hisoblangan ISO 9000 seriyasidagi standartlarni talablarni menejment tizimi uchun joriy etish va uning har bir tamoyillarini xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarni ega bo'ladi.	27,5 %	11 ta
5	Sifat menejmenti tizimiga talablar	Sifat menejmenti tizimining qabul qilinishi (joriy qilish uchun tanlash) tashkilotning strategik qarori. Sifat menejmenti tizimiga talablarni o'rnatish orqali Korxonada yoki tashkilotda yuqori sifatga erishish yo'llari va usullarini bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	5 %	2 ta
6	Sifat menejmenti tizimini hujjatlashtirish	Korxona sifat menejmenti tizimi proseduralarini, ya'ni sifat menejmenti tizimini joriy qilish uchun zaruriy jarayonlarni tavsiflovchi proseduralarni tayyorlashi lozim. Proseduralar miqdori va teranligi korxona turi, o'lchami, jarayonlarni o'zaro aloqasi va murakkabligi, qo'llanilayotgan usullar hamda ishlarni bajarishda qatnashuvchi xodimlarining tayyorgarlik darajasi va malakasi kabi omillar sifatida aniqlanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta

7	Sifat menejmenti tizimida rahbariyatning javobgarligi	Tashkilotning yuqori rahbariyati iste'molchilarni qanoatlanishi oshirish va barcha qiziquvchi tomonlar foydalarga erishishi maqsadida sifat menejment tizimini maqsadida uning ishchi holati, natijaviyligi va samaradorligini boshqarishi va qo'llab-quvvatlashi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	3 ta
8	Sifat menejmenti tizimida resurslarni boshqarish	Tashkilot sifat sohasidagi, shu jumladan mahsulot sifatini ta'minlash, jarayonlarni samarali va natijali bajarilishi, SMT samarali faoliyati, iste'molchilar va boshqa tegishli tomonlarni talablarini qondirish uchun maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun zarur resurslarni belgilashi va ta'minlash. Resurslar bilan ta'minlash uchun tashkilot mavjud resurslarni tahlilini o'tkazishi, tashkilotni SMT joriy qilish va ishchi holatda ushlashni va iste'molchilar talablarini qondiruvchi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi barcha turdagi resurslarga ehtiyojlarini belgilashi va rejalashtirish. Zarur resurslarni belgilashda korxonani tashkiliy – texnikaviy rivojlanishi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ehtiyojlar prognozi aniqlanishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	2,5 %	1 ta
9	Mahsulotni ishlab chiqarish	Tashkilot mahsulot ishlab chiqarishni xayotiy sikllari jarayonlarini (ya'ni mahsulotga ehtiyojni aniqlashdan boshlab uni iste'molchiga yetkazib berish va sotilgandan so'ng xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan, tashkilotdagi bevosita mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni) rejalashtirish va ishlab chiqish. Mahsulotni hayotiy sikllari jarayonlarini shuningdek biznes-jarayonlar yoki asosiy jarayonlar. Ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish tashkilot maqsadlari bilan moslangan bo'lishi va ularni boshqaruv jarayonlari, resurslar menedjmenti jarayonlari, o'lchashlar, tahlil va yaxshilash jarayonlari bilan o'zaro aloqasini hisobga olishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar hosil qiladi.	5 %	2

10	O'lchash, tahlil qilish va yaxshilash	Mahsulot nazorat qiymatlari (parametrlari), jarayonlar va SMT faoliyatini (monitoring) kuzatish yoki o'lchashlar seriyasini rejalashtirilgan ketma – ketlikda amalga oshirish tashkilotda mahsulot, jarayonlar, SMT o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdiqlash va doimiy takomillashtirishni namoyish qilish. Monitoring, o'lchashlar, tahlil qilish va yaxshilash bo'yicha faoliyat har bir faoliyat, har bir jarayon, mahsulotni iste'molchilar va o'rnatilgan talablarga muvofiqligini uni xayotiy sikllarini barcha bosqichlarida tasdiqlash va yaxshilash uchun imkoniyatlarni aniqlash uchun rejalashtirilgan maqsadlarga erishish darajasini baholash. Tashkilotda monitoring va o'lchashlarni amalga oshirish uslubi ishlab chiqilishi haqida bilim va ko'nikmlarga ega bo'ladi.	15 %	6 ta
11	Korxona va tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini ishlab chiqish va joriy etish	SMT samarali joriy etish va yaratish uchun korxonaning sifat sohasidagi strategiyasini aniqlash, korxonada SMT ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ishchi guruhni yaratish, biznes-jarayonlar tahlilini o'tkazish, korxonada sifatni boshqarish sohasida bajarilgan ishlarning butun tafsilotini tahlil qilish kerak. Sifat menejmenti tizimini va SMT hujjatlashtirilgan proseduralarini ishlab chiqish mashaqqatli va mas'uliyatli bosqichi. Korxonadagi SMT iga ta'sir ko'rsatadigan boshqa ma'lumotlar haqida bilim va ko'nikmalkar hosil qiladi.	7,5 %	3 ta
12	Sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirish	Sifat menejmenti tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida "O'zbekiston ytexnik jihatdan tartibga solish" agentligining hududiy idoralari, O'zbekiston standartlar insitituti, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan va belgilangan talablarga javob beradigan boshqa tashkilotlar O'z DSt ISO/IEC 17021:2009 standarti talablariga muvofiq akkreditlanishi va boshqa muvofiqlini baholash bo'yicha bilim va ko'noikmalarga ega bo'ladi.	10 %	4 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	22,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	45 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	32,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ismatullayev P.R., Axmedov B.M., Matyakubova P.M., Xamrokulov G'.X., Turayev Sh.A. Sertifikatlashtirish asoslari va sifat menejmenti. Darslik. Toshkent, Sano-standart, 2014. - 330 b.
2. O'zDSt ISO 9001:2015 Sifat menejmenti tizimi.Talablar.
3. Ахмедов Б.М., Абасов А.А. Система менежмента качества – основа конкурентоспособности. Изд. «Асп-Матбуот». 2004. 96с
4. Ахмедов Б.М., Исматуллаев П.Р., Туробжонов С.М., Юсупов Э.Д., Тураев Ш.А. Основы системы менеджмента качества. Изд-во ИПТД «Узбекистан», - Ташкент, 2009. –208 С
5. Абдувалиев А.А., Латипов В.Б., Умаров А.С., Алимов М.Н., Бойко С.Р., Хакимов О.Ш., Хван В.И. Стандартлаштириш, метрология, сертификатлаштириш ва сифат. Ўқув қўлланма. Тошкент, СМСИТИ, 2008. – 267 б.
6. Мишин, В. М. Управление качеством: учеб. для вузов по специальности 061100 "Менеджмент орг." и по специальностям экономики и упр. (060000)] В. М. Мишин. - М.: ЮНИТИ, 2005. - 464 с.
7. www.standart.uz
8. www.lex.uz
9. www.ziynet.uz